

Sana: “ ” 201\_\_-yil. Sinflar: 9-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

## MAVZU: K i r i s h

### DARSNING MAQSADI:

- a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga haqida ma’lumot berish;
- b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

### Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Vatan — bu biz tug‘ilib o‘sgan zamin, kindik qonimiz to‘kilgan tuproq, bobolarimiz izlari qolgan, ajdodlarimiz merosi avlodlarimizga qoladigan yurt. Dunyoda Vatanga muhabbatdan qudratliroq biron-bir tuyg‘u va uning sog‘inchidan kuchliroq his yo‘q. Vatan millatni yuksaltirguvchi milliy g‘ururdek jozibador sehrli bir tuyg‘uni uyg‘otadi. Xalq qanchalik or-nomusli, g‘ururli bo‘lsa, undagi Vatan hissi va milliy ong ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ona yurt — bir umrlik makon, diyor tabiati, el urf-odatları, an’anaları, ertak va afsonalaridir. Vatan hamisha navqiron va suyuqlidir. Vatan millatning ma’naviy-madaniy zaminini yaratib beradi va har bir avlod bobolarining yurtga bo‘lgan muhabbatlarini o‘zida

tashigan holda soʻnmas Vatan mehri bilan bu dunyoga qadam qoʻyadi. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini oʻz maqsad-muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, maʼnaviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yaʼni tarixiy xotira tuygʻusi toʻlaqonli ravishda tiklangan, xalq bosib oʻtgan yoʻl oʻzining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yoʻqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy oʻrganilgan taqdiridagina chinakam tarix boʻladi. Qoʻlingizdagi Oʻzbekiston tarixi darsligi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida sodir boʻlgan voqealarni oʻz ichiga oladi. Bu davr Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Bu, bir tomondan, Rossiya imperiyasi istilosi tufayli ogʻir kulfatlar, yoʻqotishlar keltirgan boʻlsa, ikkinchidan, otobobolarimiz mustamlaka jabr-zulmiga qarshi Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonona kurashlarini davom ettirdilar, uchinchidan, Vatan ravnaqi yoʻlida fidokorona mehnat qilib, katta maʼnaviy va moddiy bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdilar. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida oʻquvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. «Tarixiy xotira» iborasiga izoh bering.
2. «XIX asr oʻrtalarida Oʻrta Osiyo xonliklarining iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy holati» mavzusida «debat» mashgʻuloti uyushtiring.

**Oʻquvchilarni baholash:** Oʻquvchilar darsdagi ishtirokiga koʻra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar oʻquvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan oʻquvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** oʻquvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni oʻqib-oʻrganish, qoʻshimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

OʻTIBDOʻ: \_\_\_\_\_

Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 9-“ \_\_\_\_\_ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

**MAVZU: XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi  
DARSNING MAQSADI:**

- a) ta’limiy:** o‘quvchilarga : XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi haqida ma’lumot berish;
- b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

**Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

<b>DARS REJASI</b>		
<b>№</b>	<b>Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)</b>	<b>Ajratiladigan vaqt (reglament)</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	5 daqiqa
<b>2</b>	Ma’naviyat daqiqasi	
<b>3</b>	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
<b>5</b>	Mustahkamlash	5 daqiqa
<b>6</b>	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
<b>7</b>	Uyga vazifa berish	

**DARSNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi. XIX asrda O‘rta Osiyoda uchta mustaqil davlat mavjud bo‘lib, bular Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridir. Bu davlatlarda ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa sohalar rivojlangan bo‘lsada, biroq ularning taraqqiyoti ilg‘or Yevropa davlatlari darajasidan past edi. Amirlik poytaxti islom dini markazlaridan biri bo‘lib, «Buxoroi Sharif», y a’ni «Muqaddas Buxoro» nomiga ega bo‘lgan. Amirlik chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg‘og‘idan boshlanib shimolda Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog‘laridan g ‘arbda Xiva xonligi yerlarigacha

choʻzilgan. Davlat hududi XIX asrning oʻrtalarida Eron, Afgʻoniston, Qoʻqon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh boʻlgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi hisoblangan. Amirlikda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, Gʻuzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Koʻlob kabi yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlar ham mavjud edi. XVIII asrning boshlarida, asosan, Fargʻona vodiysi va irdaryoning quyi qismigacha boʻlgan hududlar Buxoro amirligidan ajrab, mustaqil davlat — Qoʻqon xonligi tashkil topadi. Oʻrta Osiyo davlatlarining aholisi XIX asrning oʻrtalariga kelib Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin boʻlib, ularda, asosan, oʻzbeklar yashagan. Shu bilan birga uchala xonlik hududlarida tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirgʻizlar ham istiqomat qilgan. Jumladan, bu davrda Buxoro amirligining aholisi soni 2 million atrofida boʻlib, aholining etnik tarkibi, asosan, oʻzbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlardan tashkil topgan. Amirlikda mangʻit, saroy, qoʻngʻirot, kenagas, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq kabi oʻzbek urugʻlari koʻpchilikni tashkil qilgan. Xiva xonligida aholi soni 800 ming kishidan ortiq boʻlgan. Xonlik aholisining etnik tarkibi, asosan, oʻzbeklardan, bundan tashqari turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalardan tashkil topgan. Qoʻqon xonligida aholi soni 3 millionga yaqin boʻlib, asosan, oʻzbeklardan iborat boʻlgan. Shu bilan birga u yerda qirgʻizlar, tojiklar, qozoqlar, uygʻurlar, yahudiylar, hindlar va boshqa elat vakillari ham yashagan.

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida oʻquvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Xaritadan XIX asr oʻrtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari hududini chegaralab bering.
2. XIX asr oʻrtalarida xonliklar aholisi haqida gapirib bering.

**Oʻquvchilarni baholash:** Oʻquvchilar darsdagi ishtirokiga koʻra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar oʻquvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan oʻquvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** oʻquvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni oʻqib-oʻrganish, qoʻshimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

OʻTIBDOʻ: \_\_\_\_\_

Ushbu konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz* variantini olish uchun



+998946281992 telegram raqamiga yoki

@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

**Narxi 20 000 so'm**

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet\*** orqali

**BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI!** Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

*Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.*



Telegram kanal: @uzmaktab

Web sayt: [www.hasanboy.uz](http://www.hasanboy.uz)

\* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz